Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annavayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	1194
Turopov Maqsudjon	



O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI BOSHQARISHNING TASHKILIY- IQTISODIY JIHATLARI

Turovov Maqsudjon

Toshkent arxitektura - qurilish universiteti tadqiqotchisi

ORCID: 0009 0004 8680 9755

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. Mavjud transport tarmoqlari holati, yo'l infratuzilmasi, jamoat transporti xizmatlarining samaradorligi va ularning ichki sayyohlar harakatiga ta'siri tanqidiy va tahliliy nuqtayi nazardan o'rganilgan. Ilmiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida ichki turizm va transport infratuzilmasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatilgan, hududiy disbalans, logistika xizmatlari yetishmovchiligi, raqamli servislar kamchiligi kabi muammolar aniqlangan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, transport infratuzilmasi, tashkiliy-iqtisodiy jihatlar, logistika, yo'l tarmoqlari, transport xizmatlari, turistik mobillik, infratuzilmaviy boshqaruv, hududiy rivojlanish, raqamli transport servislar.

Abstract: This article analyzes the organizational and economic aspects of the management of transport infrastructure in the development of domestic tourism activities in Uzbekistan. The status of existing transport networks, road infrastructure, the effectiveness of public transport services and their impact on domestic tourist traffic have been studied from a critical and analytical point of view. Based on scientific sources and statistics, the correlation between domestic tourism and transport infrastructure has been shown, problems such as regional dysbalance, shortage of logistics services, lack of digital services have been identified.

Key words: internal tourism, transport infrastructure, organizational and economic aspects, logistics, road networks, transport services, tourist mobility, infrastructure management, territorial development, digital transport services.

Аннотация: В данной статье проанализированы организационно-экономические аспекты управления транспортной инфраструктурой в развитии внутреннего туризма в Узбекистане. Состояние существующих транспортных сетей, дорожной инфраструктуры, эффективность услуг общественного транспорта и их влияние на внутреннее туристическое движение были изучены с критической и аналитической точки зрения. На основе научных источников и статистических данных показана взаимосвязь между внутренним туризмом и транспортной инфраструктурой, выявлены такие проблемы, как территориальный дисбаланс, нехватка логистических услуг, нехватка цифровых сервисов.

Ключевые слова: внутренний туризм, транспортная инфраструктура, организационно-экономические аспекты, логистика, дорожные сети, транспортные услуги, туристская мобильность, управление инфраструктурой, территориальное развитие, цифровые транспортные услуги.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida keng ko'lamli islohotlar va davlat siyosati markazida turibdi. Turizm faqat xorijiy sayyohlarni jalb qilish vositasi emas, balki ichki ehtiyojlarni qondirish, aholi turmush sifatini yaxshilash va hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, so'nggi yillarda mahalliy aholining turizmga bo'lgan qiziqishi, ichki harakati va iste'mol qobiliyati ortishi bilan ichki turizm bozori alohida tahlil va yondashuvni talab etadigan sohalar qatoriga kirdi.



Ichki turizmning rivojlanishi, birinchi navbatda, mamlakat aholisi uchun yaratiladigan sayohat infratuzilmasi, logistika, transport xizmatlari va hududiy aloqadorlik darajasiga bog'liq. Bu borada eng muhim asosiy omillardan biri – transport infratuzilmasining sifatli tashkil etilishi va samarali boshqarilishi hisoblanadi. Chunki turistik obyektlarga tezkor, xavfsiz va qulay yetib borish imkoni bo'lmasa, hech qanday sayyohlik mahsuloti o'z qiymatini namoyon qila olmaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi ko'plab sayyohlik obyektlari shahar va tuman markazlaridan ancha uzoqda joylashgan. Masalan, tog'li hududlar, tarixiy qishloqlar, tabiiy go'zalliklarga ega hududlarga olib boruvchi yo'llar holati qoniqarli emas. Qatnovlar soni kam, mavjud transport vositalari esa yosh jihatdan eskirgan va ekologik talablarga javob bermaydi. Shuningdek, logistika va transport xizmatlari narxining yuqoriligi, reyslar orasidagi uzoq vaqt intervali ham ichki sayyohlikka ta'sir ko'rsatmoqda.

Boshqa tomondan, ichki turizmni rivojlantirish nafaqat sayyohlar uchun qulaylik yaratishni, balki iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari tashkil etishni, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohalarida faollikni oshirishni ham nazarda tutadi. Demak, transport infratuzilmasini yaxshilash nafaqat sayohat qilishni osonlashtiradi, balki hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, aholi daromadlarini oshiradi, turizm bilan bog'liq yangi xizmatlar zanjirini yaratadi.

Hozirgi global iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar foni-da turizm nafaqat madaniy almashinuv vositasi, balki barqaror rivojlanishning muhim drayverlaridan biri sifatida qaralmoqda. BMTning Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, ichki turizm ko'pgina davlatlarda umumiy turizm oqimining 70–80 foizini tashkil qiladi va u milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ichki turizmga bo'lgan davlat e'tibori keskin ortdi, bu sohada islohotlar va strategik dasturlar amalga oshirila boshlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm va transport infratuzilmasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik so'nggi yillarda iqtisodiy geografiya, logistika va mintaqaviy rivojlanish sohalaridagi turli ilmiy tadqiqotlarda muhim mavzulardan biriga aylangan. Turizm iqtisodiyotida transport – bu faqat jismoniy ko'chish vositasi emas, balki xizmatlar zanjirining ajralmas qismi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm rivoji ko'p jihatdan transport infratuzilmasining hajmi, sifat darajasi va boshqaruv samaradorligiga bog'liq.

J. Page va M. Hall tomonidan o'zlarining "Tourism and Transport: Global Perspectives" asarida turizm va transport munosabatlarini makroiqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, transport tizimi turizm faoliyatini ishga tushiruvchi asosiy infratuzilma ekanini qayd etishadi [2]. Ular transportning logistika, vaqt xarajatlari, qulaylik va xavfsizlik kabi mezonlarini sayyohlik mahsulotining ajralmas qismi sifatida baholaydi. Ammo ularning tadqiqotlarida servis sifati, raqamli boshqaruv va mahalliy infratuzilma tavsifi yetarlicha qamrab olinmagan.

P. Rodrigue o'zining transport geografiyasi nuqtayi nazaridan chiqish qilib, turizm harakati modellarini logistika oqimlari orqali tahlil qilgan. Uning "The Geography of Transport Systems" nomli asarida ayni transport tarmoqlarining aylanish qobiliyati va hududlararo bog'liqlikka ta'siri chuqur o'rganilgan [3]. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida, xususan, tog'li va yetarlicha rivojlanmagan hududlardagi turizm imkoniyatlarini baholashda muhim asos bo'ladi.

L. Cooper va S. Fletcher esa o'zlarining "Tourism: Principles and Practice" asarida turizm infratuzilmasini samarali tashkil etishda davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkorligini hal qiluvchi omil deb hisoblashadi [4]. Ularning fikricha, transport xizmatlarini xususiylashtirish faolligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda turizm tez rivojlanadi. Bu nazariya O'zbekistonda hali to'liq amalga oshmagan va amaliy qiymatga ega bo'lgan masala – ya'ni transport xizmatlari bozorini erkinlashtirish masalasiga olib keladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham ushbu mavzuda qator ilmiy ishlar yaratgan. Jumladan, A.Q. Rahmatov tomonidan transport infratuzilmasining turizm salohiyatiga ta'siri tahlil qilinib, yo'l tarmoqlari holati, marshrutlarning mavjudligi va xizmat sifatini asosiy omil sifatida ko'rsatadi [5]. Uning tahlillari mahalliy shart-sharoitga mos, lekin raqamlashtirish va tizimli boshqaruv masalalariga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Sh.Yu. Hamidov tomonidan transport-logistika tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish ichki turizm rivoji bilan bog'lanadi. U transport xizmatlari narxi, xarajat tuzilmasi va tarif siyosatiga alohida e'tibor qaratgan [6]. Uning ishi yuqori iqtisodiy aniqlikka ega bo'lsa-da, sayyohlar ehtiyojlari, segmentatsiya va servis psixologiyasi nuqtayi nazaridan yetarlicha tahlil qilinmagan.

Shuningdek, U.U. Nabiev esa o'z tadqiqotida turizmga logistika zanjirlarini takomillashtirishning institutsional mexanizmlarini o'rganib, hududlararo transport integratsiyasini ta'minlash uchun axborot tizimlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi yechimlarni taklif etadi [7]. Bu yondashuv amaliy jihatdan muhim, ayniqsa raqamli servislar orqali ichki turizmni samarali boshqarishda qo'l keladi.

Tahlildan ko'rinadiki, mavjud ilmiy adabiyotlar turizm va transport munosabatlarining muhim jihatlari ochib beradi, biroq aksariyat tadqiqotlar yoki global nazariyalarga asoslangan, yoki mahalliy amaliyotni cheklangan doirada yoritadi [8][9]. Bunda transport infratuzilmasini faqat jismoniy tarmoq sifatida ko'rish emas, balki



kompleks boshqaruv tizimi – ya'ni siyosat, iqtisod, raqamlashtirish va inson kapitali elementlari bilan bog'liq holda o'rganish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarish tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini ilmiy tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish uchun xizmatlar sohasini, jumladan, turizmni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ichki turizm orqali mamlakatning kam rivojlangan hududlarida yangi iqtisodiy faollik nuqtalari paydo bo'lishi, aholi bandligi oshishi, tadbirkorlik faoliyati faollashishi mumkin. Bu esa mamlakat ichida iqtisodiy tenglik va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi. Lekin ushbu jarayonda transport infratuzilmasi hamon "bo'g'in nuqta" sifatida qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga oid strategik hujjatlarda (xususan, 2023–2025-yillar uchun Turizmni rivojlantirish dasturi) transport infratuzilmasini yaxshilash masalasi alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son¹ Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida: [1]

turizm obyektlari (me'moriy yodgorliklar va boshqalar) hamda infratuzilmasi (mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari, turistik yo'nalishlar va boshqalar) joylashgan joylarning belgi-ishoralari va ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan tematik turistik xaritalar adadini ko'paytirish va ularni tarqatishga kartografiya ishlarini amalga oshirish uchun litsenziya (ruxsatnoma) olinishi talab etilmaydi;

turistlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (davlat muzeylari, galereyalar, madaniy meros obyektlari va qo'riqlanadigan tabiiy hududlar ma'muriyatlari va boshqalar) o'z faoliyatidan tushadigan tushumlarning kamida 5 foizini o'z faoliyati hamda taqdim etayotgan turizm xizmatlari bayon etilgan reklama-tarqatish materiallarini o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlash va adadini ko'paytirish uchun majburiy tarzda yo'naltiradi. Bunda ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan xarajatlar summasi bu tashkilotlarning soliqqa tortiladigan bazasidan chiqarib tashlanadi.

Ammo amaliyotda ko'pgina sayyohlik hududlari – ayniqsa tog'li, cho'l hududlari, tarixiy qishloqlarga bog'lovchi qatnov tizimi talab darajasida emas. Temir yo'l tarmoqlari faqat yirik shaharlarni bog'laydi, viloyat va tumanlar orasidagi avtobus qatnovlari cheklangan, yo'llar holati esa sayyohlar uchun qulay emas. Bu esa mavjud sayyohlik salohiyatidan to'liq foydalanishga to'siq bo'lmoqda.

Infratuzilmani faqat qurish emas, balki uni samarali boshqarish, modernizatsiya qilish va xususiy sektorni jalb etish kabi tashkiliy-iqtisodiy vazifalar ham mavjud.

Dunyo amaliyotida ichki turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasiga katta sarmoya kiritiladi. Masalan, Yaponiya, Turkiya, Fransiya va Xitoyda ichki turizm yo'nalishlariga maxsus temir yo'l qatnovlari, ekspress avtobuslar va chakana aviayo'nalishlar tashkil etilgan. O'zbekiston bu borada raqobatbardosh bo'lishni istasa, zamonaviy, integratsiyalashgan, moslashuvchan transport boshqaruv tizimini shakllantirishi lozim.

Ichki turizmning rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri transport infratuzilmasining holati va boshqaruv samaradorligiga bog'liq ekanini O'zbekiston amaliyoti ham tasdiqlamoqda. Mamlakatda so'nggi yillarda ichki turistlar soni keskin ortgan bo'lsa-da, transport xizmatlari va infratuzilma unga mos darajada rivojlanmayotgani aniqlandi. Bu bo'limda 2020–2023-yillar davomidagi statistik ma'lumotlar asosida ichki turizm va transport infratuzilmasi o'rtasidagi muvozanatsizlik tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda 2020–2023 yillarda ichki sayyohlar soni.

Yillar	Ichki turistlar soni (mln)	O'sish sur'ati (%)
2020	6,1	-
2021	7,8	+27,9
2022	9,5	+21,8
2023	10,6	+16,1

Manba: Turizm va madaniy meros vazirligi, 2024

1 <https://www.lex.uz/ru/docs/-3548467>



2020–2023-yillar davomida ichki turistlar soni deyarli ikki baravar oshgan. Bu aholi o'rtasida sayohatga bo'lgan ehtiyoj va qiziqish yuqori ekanini ko'rsatadi. Ammo ushbu o'sishga qaramay, transport infratuzilmasida shunga mos o'sish kuzatilmagan (2-jadval).

2-jadval. Viloyatlar kesimida turizm obyektlariga yetib borishdagi transport masofalari va holati.

Viloyat	Turizm obyektlari soni	Avtomobil yo'li orqali o'rtacha yetib borish vaqti (soat)	Yo'l holati bahosi (1–5)
Toshkent	120	1,5	4,2
Samarqand	95	2	4
Buxoro	88	2,2	3,8
Qashqadaryo	63	3,4	2,7
Navoiy	51	4	2,5
Namangan	69	3	3,1
Surxondaryo	54	4,2	2,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi, 2023

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi markaziy hududlarda transport yetib borish vaqti qisqa va yo'llar holati yaxshi baholangan. Ammo Qashqadaryo, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida yo'l holati past, yetib borish vaqti uzoq. Bu hududlar sayyohlik salohiyatiga ega bo'lsa-da, infratuzilmaning rivojlanmagani sababli sayyohlar oqimi kam bo'lishi mumkin (3-jadval).

3-jadval. Transport xizmatlaridan aholi qoniqish darajasi (2023-yil, so'rovnoma natijalari).

Transport turi	Qoniqish darajasi (%)	Asosiy shikoyatlar
Avtobus	58	Reyslar kam, tartibsiz, konditsioner yo'q
Poezd	72	Chipta topish qiyin, yo'l uzun
Taksi	64	Narxlar noaniq, xavfsizlik ta'minlanmagan
Turistik avtobuslar	49	Mavjud emas, faqat shaxsiy buyurtma orqali

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ichki turistlar orasida transport xizmatlariga qoniqish darajasi past. Xususan, turistik avtobuslar soni yetarli emas, jamoat transportida qulaylik yo'q, reyslar noto'g'ri tashkil etilgan. Bu omillar turistik safarlarning amalga oshirilish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun transport infratuzilmasini faqat texnik emas, balki boshqaruv, axborot va xizmat sifati nuqtayi nazaridan ham qayta ko'rib chiqish zarur. Hududiy disbalansni bartaraf etish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish va raqamli tizimlar joriy etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Yuqorida keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra quyidagilarni xulosa sifatida ta'kidlashimiz mumkin:

Ichki turizm dinamik o'smoqda, lekin transport infratuzilmasi bu o'sishga tayyor emas. Ayrim hududlarda sayyohlik obyektlariga yetib borishning uzoqligi va yo'l holatining yomonligi turizmni cheklamoqda. Axborot va raqamli boshqaruv yetishmasligi tufayli transport xizmatlarining sifatini kuzatib borish va yaxshilash imkoni cheklangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish jarayonida transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari har tomonlama tahlil qilindi. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki turizmning barqaror o'sishi uchun faqat turizm obyektlari va xizmatlarini rivojlantirishning o'zi yetarli emas, balki ularga bog'lovchi transport tizimlarining sifatli tashkil etilishi va samarali boshqarilishi muhim halqa hisoblanadi.

Xususiy transport xizmatlari bozori yetarlicha rivojlanmagan, turistik avtobuslar yetishmaydi, mavjud qatnovlarning sifat darajasi past. Ayrim hududlarga yetib borish vaqti 3–5 soatgacha cho'ziladi, bu esa ichki turistlarning qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jamoat transportida servis sifati past, axborot xizmatlari yo'q, bronlash va onlayn xarid platformalari cheklangan. So'rovnomalar natijalari ham shundan dalolat beradiki, aholining turizm uchun mo'ljallangan transport xizmatlaridan umumiy qoniqish darajasi 60 foizdan oshmaydi.



Bunday sharoitda mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish bilan birga, uni samarali boshqarishga qaratilgan tizimli, institutsional va raqamlashtirilgan yondashuv zarur. Ichki turizm uchun qulay transport muhitini yaratish nafaqat turistlar oqimini oshirish, balki hududlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash, mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish va umumiy hududiy rivojlanishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu tahlil va holatlardan kelib chiqib quyidagi keng qamrovli xulosalarni chiqarish mumkin:

Ichki turizm va transport o'zaro bog'liq sohalar sifatida strategik yondashuv asosida rivojlantirilishi kerak. Bunda turizm hududlariga bog'lovchi yo'llar, qatnov tizimlari, logistika markazlari, servis punktlari va axborot tizimlari bir-biri bilan uyg'un holda rivojlantirilishi lozim.

Hududiy infratuzilma disbalansi bartaraf etilishi zarur. Markaziy va sayyohlik salohiyati yuqori bo'lgan, ammo transport jihatdan oqsoq viloyatlarga alohida investitsion loyihalar orqali infratuzilma rivoji ta'minlanishi kerak.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish lozim. Turistik avtobuslar, onlayn servislar, transport-axborot platformalarini xususiy tashabbuslar orqali keng joriy qilish, investitsiya uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar yaratish zarur.

Transport xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha milliy standartlar joriy etilishi kerak. Turistik reyslar uchun maxsus litsenziya, xavfsizlik va qulaylik standartlari shakllantirilib, nazorat va baholash mexanizmi yo'lga qo'yilishi lozim.

Raqamlashtirish va axborot tizimlarini integratsiya qilish talab etiladi. Yo'nalishlar, reyslar, chiptalar, axborot markazlari, fuqarolar uchun mobil ilovalar – bularning barchasi yagona platformada jamlanishi, turistlar uchun foydalanish oson bo'lishi shart.

Mavjud vaziyatni baholash va yondashuvni muntazam qayta ko'rib chiqish uchun ilmiy-tahliliy markazlar faoliyati kuchaytirilishi lozim. Universitetlar, tadqiqot institutlari va sohaviy agentliklar ishtirokida yillik reyting, tahlil va prognozlar asosida transport infratuzilmasini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Transport infratuzilmasiga faqat texnik masala sifatida emas, balki ichki turizm salohiyatini ochuvchi strategik kalit sifatida qarash zarur. Bu masalada uzoq muddatli, muvozanatli va innovatsion yondashuv bo'lmas ekan, O'zbekiston ichki turizm imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydi. Shuning uchun transport infratuzilmasini samarali boshqarish masalasi milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2018-yildagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-son qarori. <https://lex.uz/docs/3551112>
2. Page J., Hall M. (2014). *Tourism and Transport: Global Perspectives*. Pearson Education.
3. Rodrigue J.P. (2020). *The Geography of Transport Systems*. Routledge, 5th Edition.
4. Cooper C., Fletcher J. (2018). *Tourism: Principles and Practice*. Pearson.
5. Раҳматов А.Қ. (2021). Транспорт инфратузилмаси ва туризм муносабатлари. Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти.
6. Ҳамидов Ш.Ю. (2019). Иқтисодиётда логистика хизматларини ривожлантириш. Самарқанд: СамИҚХ.
7. Набиев У.У. (2020). Туризмда логистика занжирлари ва ахборот технологиялари. Тошкент: Илм Маркази.
8. UNWTO (2022). *Tourism and Transport Review*. <https://www.unwto.org>
9. Козлов Л.Т., Гончаров А.Н. (2020). *Туризм инфратузилмаси асослари*. Москва: Юрайт.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
